



TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILARNING XULQ-ATVORI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH

MASALALARI

Maxmatqulov Ilyos Sadulla o'g'li

Urgut tuman IIB JXX HPB VY va

YBIG inspektor psixologi katta leytenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17249841>

ARTICLE INFO

Received: 21st September 2025

Accepted: 25th September 2025

Published: 30th September 2025

KEYWORDS

delinkvent, motiv, motivasiya, ehtiyojlar, o'jarlik, agressivlik, tajovuzkorlik, nizoli vaziyatlar, ijtimoiy xulq-atvor, sog'lom avlod, milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit, oila va urf-odatlar.

ABSTRACT

Maqolada tarbiyasi qiyin o'quvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish shart-sharoitlari, ijtimoiy darajada shaxsning o'zini namoyon qilishi (boshqalarni hurmat-e'tiboriga erishish) ijtimoiy mavqeyega ega bo'lishga intilish muammolari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kundagi inson jinoiy hatti-harakatlarining elementlari to'g'risida mulohazalar bayon etilgan.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Prezident farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi. Unda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish masalasi birinchi o'ringa qo'yildi.

Insonlar qadimdan farzandlari ko'pligi, ularning yordamlari va og'irlarini yengil qilishlari bilan faxrlanib kelganlar. Farzandlarning atrofidagi insonlar uyda bo'lsin, xoh ko'chada, xoh maktabda unga namuna vazifasini bajaradilar.

Ota-ona bolaning vaqtini to'la qamrab oladigan zarur va manfaatli mashg'ulotlarni tayyorlashi kerak va ana o'sha mashg'ulotlar bolaning ongini rivojlantiruvchi bo'lishi shart. Bolaning tarbiyasida jamiyat nasihat qiluvchi, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi va taraqqiy ettiruvchi vazifasini egallab kelgan.

Bugunki kunda kim bilan o'tirib gaplashsangiz, darrov farzandiga buzg'unchi g'oyalarni ta'sir etayotganidan shikoyat qiladi. Aksar xonadonlarda esa farzand tarbiyasi global muammoga aylanib, ulgurgan.

Internet va axborot tizimlari orqali yoshlarga qilinayotgan hujumlardan saqlanish va ehtiyot choralari izlanmoqda. Lekin bildirilayotgan aksar choralar faqat nazariy, amalda qo'llab bo'lmaydigan ko'rsatmalardan iborat. Shuning uchun farzand tarbiyasi bugun ko'pgina xonadonlarda dolzarb muammoga aylangan.

Sir emaski, insonning xulq - atvori o'zgaruvchan va rang-barang bo'lib, uning individual xususiyatlari, o'ziga xos «uslublari» ning mavjudligi hych qachon va hych kimda hych

qanday shubha tug'dirmaydi. Shubhasiz, ta'lim-tarbiya ongning mahsuli va ongning darajasi bo'lish bilan birga ongning rivojini kam belgilaydigan omildir.

Deviant xulq muammosi nazariy tahlilining ko'rsatishicha, xulq buzilishlarining asosini ijtimoiy va psixologik dezadaptasiyaga olib keluvchi «og'ish»lar tashkil etadi. Hozirda turli yosh davrlariga xos xulq og'ishlarining psixo profilaktikasi va korreksiyasi xususidagi masalaga oydinlik kiritishga e'tibor xaddan ziyod ortgan. Bu esa mazkur shaxs strukturasi tashkil etuvchi barcha komponentlar, jumladan, markaziy negiz tarzidagi shaxsning motivasion-extiyoj jabxasi, shuningdek, xulq og'ishlarining o'zaro uzviy, organik, integral bog'liqlikdagi o'zgarishlarini o'rganishdek vazifani yuklaydi. Zero, milliy psixologiyamizda deviant xulq psixologiyasi umumpsixologik nazariy va amaliy jihatdan har tamonlama chuqur izlanishlarga muhoj, nihoyatda dolzarb muammolardan biri sanaladi..

Jinoiy harakatlar (delinkvent, lotin. *Delinquens* - jinoyatchilik, huquqbuzarlik) deb, xuddi shunday xulq-atvor turiga mansub, subyekt ehtiyojlar, istaklarni qondirish uchun jarohat yoki o'limga olib kelish maqsadida jismoniy kuch yoki qurol ishlatish bilan jarohat yetkazish, ruhiy zo'riqishlarni yengish maqsadida o'zining ehtiyojlari, istaklarini qondirishning noqonuniy yo'lini tanlaganiga aytiladi. Bunday holatda jinoyatning maqsadi tajovuzkor hatti-harakatlarni amalga oshirishga qaratiladi.

Jinoiy harakatlarning motivasiyasi nafaqat tajovuzkorlikni, balki boshqa noqonuniy harakatlarni ham keltirishi mumkin: pora olish, ta'magirlik, o'g'irlik va h.k. Shuning uchun jinoiy xulq so'nggi yillarda huquqshunoslarning e'tiborini tortadigan o'ziga xos ahamiyatga ega. Buning isboti sifatida ("Jinoyat motivasiyasi") shaklida tuzilgan monografiyalar huquqshunoslar va psixologlarning birgalikdagi ish olib borishlariga sabab bo'lmoqda. Bu ish ikkilamchi taassurot qoldiradi. Bir tomondan jinoyatning sabablarini aniqlashtirishga qodir bo'lgan kriminalist psixologlar uchun aql-idrok va hatto ilg'or fikrlarni ifoda etadilar (aniqrog'i, ular haqiqiy hayotga nisbatan mutlaq, mustaqil ravishda niyatlarni aks ettirgani uchun haqiqiy hayotga yaqin) va boshqa tarafdin ular orasida psixologlarning ishiga tayanadigan bo'lsak, ular orasida motivasiya va motivlar haqida umumiy tushuncha mavjud emas.

Yetakchi kriminalistlardan biri, akademik V.N.Kudryavsev (1978) jinoiy hatti-harakatining sababini, jinoyatning sababini, uning rivojlanish va dizaynini yaratish jarayoni, keyinchalik uning haqiqiy jinoiy harakatlarda amalga oshirilishi deb tushunadi. U ushbu tushunchalar doirasi va tarkibi jihatidan motivasiyani jinoiy harakatlar mexanizmidan ajralib turishi kerak, deb hisoblaydi. Motivasiya uning nuqtai nazaridan mexanizmni o'z ichiga olmaydi, chunki u qabul qilingan qarorni va o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshiradi (bu tushunchani tan olmaslik qiyin). Ammo V.N.Kudryavsevning fikriga ko'ra, - bu masalada vaziyatni motivasiya va baholashni, shuningdek, uning harakatlarining natijalarini kutish va qarorlarni qabul qilishni o'z ichiga olmaydi. Shunda jinoyat sodir etgan shaxs ko'r-ko'rona harakat qiladi.

V.N.Kudryavsev jinoyat sodir etilishining sababini ichki harakatlantiruvchi quvvat deb ataydigan bo'lsa, ayni paytda jinoyatning sababi faqat jinoyat sodir etilishining obyektlari yoki ta'sir obyekti, maqsad yoki jinoiy natijaga erishish vositasi sifatida qaraladi. Aniq qo'yilgan haqiqiy maqsad va uni bajarish vositasi haqidagi savolga javob beradimi? Agar u haqiqatan ham to'g'ri bo'lsa (va V.N.Kudryavsevning quyidagi iborasi bu tushunmovchilikka aniqlik kiritadi: "...jinoiy hatti-harakat qilmagan insonning salbiy ehtiyojlari yoki qiziqishlari, qarashlari yoki his-tuyg'ularida jinoyat qilishi uchun hiech qanday sabab yo'q, haqiqiy jinoiy harakatgacha juda katta masofa bo'lishi mumkin"), unda faqat bitta xulosa bor: jinoyat hiech qanday jinoiy rejani amalga oshirishiga sabab yo'q. Biroq, bajarilmagan hatti-harakat bu mativ yo'qligini anglatmaydi. Shubhasiz, muallifning ta'kidlashicha, - ixtiyoriy ravishda yoki ixtiyorsiz ravishda xarakterdagi jinoiy harakati jinoyat sababi bilan aniqlanadi, bu esa

kechikish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, motivasion ustanovkaga aylanadi. Inson jinoyatchi emas (va hych qachon bo'lmasligi mumkin), lekin u ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lishi mumkin, chunki u jinoyatni sodir etishga moyilligi bor. Shuning uchun, tanqidchi I.Karpes (1969) G'arb jinoyatchilarining "xavfli vaziyat" haqida gapiradigan qarashlari juda ishonarli ko'rinmasligini aytadi.

Bu haqdagi tushunchalar jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning sodir etilish shart-sharoitlarini bartaraf etishdan tashqari, shaxsning qarashlari va shaxs ustanovkasini o'zgartirishi, ya'ni, ularni tarbiyalash va qayta tarbiyalashdan iborat bo'lishi kerak. V.N.Kudryavsev bunga e'tiroz bildirmadi, chunki u jinoyat sodir etilishining sabablarini bilish shaxsiy himoya choralarini rejalashtirish va subyektning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilishiga ko'maklashadi, jamiyat qarashlariga teskari mazmuni, chuqurligi va barqarorligi haqida fikr yuritadi; bir qator hollarda, kelib chiqish sabablarini bilish shaxsni shakllantirish sharoitlarini, shuningdek, jinoiy maqsadlar yuzaga kelgan vaziyatni baholashga imkon beradi.

Shunday qilib, agar jinoyat qonunchiligida jinoyat sodir etganmi yoki yo'qmi, faqatgina bitta jinoyat alomati bo'lsa, unda huquqni muhofaza qilish organlari va pedagoglar uchun bunday tarbiya jarayoni yetarli emas: jinoyat hatti-harakatlarining sabablari va motivasion xulq-atvorga olib kelishi mumkin bo'lgan maqsadlarni, shaxsiy xususiyatlarni aniqlash kerak.

Jinoyatlar ta'sirini jinoyatlar motivasiyasi davrida aks ettiradigan muddatlar muayyan vaziyat doirasi bilan chegaralanishi mumkin emas. Bu yerda V.V.Luneyev niyatning strukturasi o'rganish orqali biz shu bilan shaxsiyatning tuzilish tarixi, uning tuzilishini o'rganamiz degan fikrni aniq ifoda etdi. Jinoyatchining asosiy motivlari va ijtimoiy rollari, aloqalari va shuning uchun shaxsiyat xususiyatlarining o'rtasida 70-75% hollarda jinoiy harakatlarning sabablari xususida mashhur parallelizm mavjud.

V.B.Golisym (1985), jinoyatchilar uchun tavakkalchilik uchun zarur bo'lgan ehtiyojning ustunligi va rivojlanish, bilim, mehnat, shaxslararo muloqot ehtiyojlarini yetarli darajada shakllantirmasligini aniqladi.

Jinoyat motivi - insonni aynan shu jinoyatni sodir etishga undagan va jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirishida jismoniy va aqliy yo'nalganlikning uyg'un ifodasini boshqarib turadigan kuch manbai sifatida namoyon bo'ladi. Motivasiya - insonning qoniqish manbaiga intilishi sifatida uning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Motiv asosida shakllangan maqsadga ko'ra, odam har doim o'z ehtiyojlarini qondirish uchun biror-bir obyektga yoki manbaga yo'nalgan bo'ladi.

Oilada delinkvent xulq-atvor bilan bog'liq ijtimoiy psixologik muammolarni bartaraf etish shart-sharoitlari, ijtimoiy darajada shaxsning o'zini namoyon qilishi (boshqalarni hurmat-e'tiboriga erishish) ijtimoiy mavqeyega ega bo'lishga intilish muammolari bilan shug'ullanish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yoki jazo choralarini kuchaytirish bilan jinoyatchilikni butunlay bartaraf etib bo'lmaydi. Eng muhimi yoshlarning bilim olishi, mehnat qilishi bilan bog'liq muammolarni ijobiy hal etishi, huquqiy, pedagogik va psixologik tarbiyani kuchaytirish yo'li bilan ko'zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari Yoshlar forumida so'zlagan nutqida yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

- Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha - hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi

mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e’tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi.

Aziz farzandlarim! Xalqimiz, Vatanimiz sizlardan buyuk ishlar kutayotganini hech qachon yodingizdan chiqarmang! Yurtning yuksak ishonchi va umidini to’la oqlash, unga munosib bo’lish dunyodagi eng ulug’ baxtdir. Shunday sharaf barchangizga nasib etsin, – dedi Shavkat Mirziyoyev so’zining yakunida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. O’zbekiston yoshlari forumida so’zlagan nutqidan, 25 dekabr 2020 yil, 18:00 siyosat.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. Toshkent; Ma’naviyat, 2008 y.
3. M. Abdullayev, E. Umarov, A. Ochildiyev, A. Yo’ldoshev, A. Abdullayev “Madaniyatshunoslik asoslari”. «Turon-Iqbol» nashriyoti, Toshkent — 2006 y.
4. M.Imomnazarov “Milliy ma’naviyatimiz asoslar”. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006.
5. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun darslik. /Prof. F.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent, 2008.
6. G’oziyev E.G., Jabborov A.M. Faoliyat va xulq-atvor motivasiyasi. T.: 2003, -124 b.
7. Karimova V.M. Yoshlarda o’zbek oilasi to’g’risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
8. Qodirov O.S. “O’smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiya” // Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.
9. Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. // Qonun himoyasida. 2001, 1- son, 23-26- b.
10. Feldshteyn D.I. “Obshiy voprosi obrazovaniya” Obrazovaniye i nauka. 2013. № 9 (108).